

ELEKTRON ARXIVLARNI YARATISH BO'YICHA JAHON TAJRIBASI

Sultanova Zuxra Shuxratovna
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
“Axborot-kutubxona tizimlari” kafedrası o‘qituvchisi

ANNOTASIYA

Ushbu maqolada jahonda elektron arxiv yaratish bo'yicha izlanishlar, tadqiqotlar, xalqaro standartlar, jahondagi arxivlar va ularning turlari, arxivlarda qo'llaniladigan axborot texnologiyalari haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: arxiv, standartlar, axborot texnologiyalari.

АННОТАЦИЯ

В данной статье представлена информация об исследованиях, исследованиях по созданию электронного архива в мире, международных стандартах, архивах мира и их видах, информационных технологиях, применяемых в архивах.

Ключевые слова: архив, стандарты, информационные технологии.

ABSTRACT

This article covers research, research, international standards, World archives and their types, information technology used in archives.

Keywords: archive, standards, information technologies.

Elektron arxiv - bu hujjatlarni sifatli va uzoq muddatga saqlash maqomiga ega muassasalar elektron hujjatlarini jamlash uchun hisobga oluvchi, saqlovchi va foydalanishni yaxshi tashkil qiluvchi muassasining bo'limi hisoblanadi.

“Raqamli arxivlar”(ingliz tilida *digital archives*) -bu hujjatlar, ma'lumotlar yoki materiallarning raqamli shaklda saqlanishi, boshqarilishi va foydalanilishi uchun yaratilgan tizim yoki platformani anglatadi.

Jahonda elektron va raqamli arxivlarni yaratish bo'yicha izlanishlar, tadqiqotlar hozirga qadar davom etmoqda. Asosiy vazifa etib yagona standart va ushbu standartga asoslangan elektron arxivning tavsif formatini yaratish belgilangan. Shu sababli, elektron arxiv yaratish uchun chet el ilg'or arxiv muassasalari tajribalarini o'rgangan holda yondashish maqsadlarning amalga oshirishida o'rinli hisoblanadi.

1992-yilda Monreal shahrida Xalqaro arxiv kongressi tomonidan Arxiv tavsifi printsiplari to'g'risidagi Nizom qabul qilindi. Nizomda arxiv tavsifiga oid standartlarni yaratishda quyidagi vazifalar belgilanib qo'yildi:

- bir qolipga solingan adekvat va ortiqcha sharh talab qilmaydigan tavsif yaratishni kafolatlash;

- arxiv materiallari haqidagi ma'lumotlarni qidirish va o'zaro almashishni muvofiqlashtirish;
- avtoritet (me'yoriy) ma'lumotlardan qo'shma foydalanish imkoniyatini taqdim etish;
- yagona axborot tizimi doirasida turli manbalardan olingan tavsif yozuvlarini integratsiya qilish imkoniyatini ta'minlash.

Ushbu tamoyillarga asoslangan holda arxiv tavsif elementlarini aniqlab beruvchi ISAD(G) (General International Standard Archival Description - Xalqaro umumiy arxiv tavsifi standarti) standarti yaratilgan. Bundan tashqari arxivshunoslar tomonidan yana bir qancha standartlar (ISAAR(CPF), ISDF, ISDIAH) yaratilgan.

1992-yilda Rossiya Davlat ilmiy-texnik hujjatlar arxivi Rossiyaning tarixiy va hujjatlarini saqlash markazi bilan birgalikda hujjatlarni elektronlashtirish uchun zarur loyihani amalga oshirganligini ko'rishimiz mumkin.

Ushbu loyiha doirasida quyidagi ishlar belgilab olingan:

1. Hujjatlarning bir nechta formatini yaratish
2. Yozma va qo'lda yozilgan matnlarni elektronlashtirish.
3. Turli xil qog'oz soylari tushmasligi uchun skanerlash paytida papkalar tikilmagan bo'ishi kerak bo'lgan.

Loyiha doirasida jami 14362 ta hujjat skanerdan o'kazildi, shu jumladan 455 ta fotosurat, rasm va bosma nashrlar ham elektronlashtirilgan. Matnli hujjatlarni skanerlash uchun DataCopy- 830 va Relisys rezolyutsiyasi 200-400 ballgacha bo'lgan tekis skanerlardan foydalanilgan. Fotosurat hujjatlari va yirik formatdagi hujjatlarning kulrang rangdagi rasmlarini skanerlash uchun shtativda kamera shaklida tayyorlangan DataCopy-920 proektsion skaneri ishlatilgan bo'lib, u yuqori piksellar soniga ega va sifatni yo'qotmasdan kulrang shkaladagi hujjatlarni skanerlash imkonini beradi. Fotosuratlar 200 dan 1000 gacha (o'lchamlari va tarkibiga qarab) bo'lgan o'lchamlarda skanerlangan.

Ma'lumotlar bazasi dasturini ishlab chiqish vositasi sifatida YUNESKO tomonidan ishlab chiqilgan ISIS dasturiy ta'minot tizimining 3.2 versiyasi va Paskal ISIS dasturlash tili ishlatilgan.

Ko'rib chiqilgan loyihalarni amalga oshirish natijasida optik diskda matnli sug'urta nusxalarini yaratish uchun asosiy texnologiyalari ishlab chiqilgan.

1996-yilda Rossiya arxiv ishlarini axborotlashtirish dasturi (1997-2000) tasdiqlangan, unga muvofiq avtomatlashtirilgan texnologiyalardan foydalanishni tartibga soluvchi me'yoriy va uslubiy hujjatlar ishlab chiqilib, elektron hujjat tavsiflari uchun standartlar va avtomatlashtirilgan arxiv texnologiyalari ma'lumotlari bazalari va ularning muvofiqligi ta'minlagan. Shuningdek, arxivlashda avtomatlashtirilgan arxiv texnologiyalarini (AAT) joriy etish jarayoni ikki yo'nalishda rivojlangan:

1. Davlat arxivlarida faoliyatning yo'nalishlari bo'yicha standartlashtirilgan ma'lumotlar bazalarini markazlashtirilgan holda ishlab chiqish hamda joriy etish belgilab olingan. Bu ish Rosarxiv rahbarligida tarmoqni axborotlashtirish dasturi, tadqiqot rejalari va ma'lumotlar bazasi komplekslari uchun texnik shartlarga muvofiq amalga oshirilgan. Ma'lumotlar bazalarining asosiy tashkil etuvchisi VNIDAD bo'lib, arxiv muassasalarining asosiy vazifalari malakali kadrlar orqali kompyuterda amalga oshirish uchun istiqbolli arxiv texnologiyalarini ishlab chiqish bodgan.

2. Arxivlarning ehtiyojlari, axborot iste'molchilarining talablari, arxiv tomonidan qabul qilingan kompyuterlashtirish dasturlari, iqtisodiy va kadrlar resurslari hamda boshqa omillar asosida arxivlarning o'zlari tomonidan amalga oshiriladigan va ma'lumotlar bazalarini ishlab chiqishda o'z ifodasini topadigan kompyuterlashtirish jarayonlari o'rganilgan.

Ko'rinib turibdiki, texnologiya sohasida dunyoda yetakchi bo'lgan davlatlar axborot boshqaruvini tijoratlashtirish orqali innovatsiyalarni amalga oshirishmoqda. Masalan, Acxiom ma'lumotlar kompaniyasi uch yuz million AQSh fuqarolarining shaxsiy ma'lumotlarini qamrab olgan. U AQSh fuqarolari haqida FQBdan ko'ra ko'proq ma'lumotga ega.

Koreya Milliy arxivi Janubiy Koreya hukumatining agentligi bo'lib, davlat tomonidan ishlab chiqarilgan maqolalar va yozuvlarni saqlash bilan shug'ullanadi. Uning shtab-kvartirasi Daejon hukumat majmuasida joylashgan bo'lib, Pusan va Sonnamda filiallari va Seulda asosiy ofisiga ega. Seul arxivi hujjatlarni boshqarishga bag'ishlangan dunyodagi eng ilg'or muassasa hisoblanadi.

Pusan shahrida joylashgan Pusan arxivida Jahon xotirasi yodgorligiga kiritilgan Joseon sulolasi yilnomalarining Taebeksan nusxasi saqlanadi. U Janubiy Koreya hukumati tashkil etilishidan oldingi hujjatlarni saqlaydi, nashrlarni boshqaradi va zaxira elektron arxiv sifatida xizmat qiladi. Repozitariy Daegu-Gyongbuk va Pusan- Gyongnam mintaqalariga doir yozuvlarni umumiy boshqarish, saqlash va ulardan foydalanish xizmatlari uchun javobgar hisoblanadi.

Shuningdek, ushbu arxivlar yozuvlarni to'plash, tartibga solish, saqlash va tiklash orqali muhim milliy yozuvlarni tizimli va samarali boshqaradi, shuningdek, ko'rgazmalar, seminarlar va kasbiy tajriba darslari orqali madaniyatni kengaytirishga bag'ishlangan faoliyatlar bilan shug'ullanadi.

2012-yilda qurilgan Daejon arxivi Chungcheong, Jeolla va Jeju mintaqalaridagi doimiy yozuvlarni to'playdigan, saqlaydigan va elektron hujjatlardan foydalanadigan boshqaruv arxiv inshootidir. Ushbu arxivda qog'oz hujjatlar bilan birgalikda raqamli hujjatlar ham saqlanadi. Arxiv asosan elektron hujjatlar orqali ishni tashkil qiladi.

Yuqorida keltirib o'tilgan arxivlar faoliyatiga e'tibor beradigan bo'lsak, asosan raqamlashtirish orqali tashkil qilingan faoliyat natijasidagi elektron bazalardan foydalanish orqali ish tashkil qilinganini ko'riшимiz mumkin.

Xitoydagi muhim raqamli arxivlardan biri Xitoy Ijtimoiy fanlar akademiyasi tarixi ma'lumotlar bazasi bo'lib, u 10 milliondan ortiq tarixiy yozuvlarga, jumladan hujjatlar, xaritalar va fotosuratlariga kirish imkonini beradi. Ma'lumotlar bazasi qadimgi Xitoy tarixi, zamonaviy Xitoy tarixi va Xitoy madaniyati kabi bir qator mavzulami o'z ichiga oladi.

So'nggi yillarda Xitoy ham o'zining an'anaviy madaniyati va merosining raqamli arxivlarini rivojlantirishga katta sarmoya kiritmoqda. Misol uchun, Xitoy madaniyati merosini raqamli himoya qilish markazi qadimiy artefaktlar va tarixiy joylarning raqamli arxivlarini yaratish uchun Xitoydagi yirik muzeylar va meros ob'ektlari bilan hamkorlik qildi.

Umuman olganda, Xitoy o'zining boy madaniy merosi va tarixiy materiallarini saqlaydigan va ularga kirishni ta'minlaydigan juda ko'p raqamli arxivlariga ega bo'lib, butun dunyodagi tadqiqotchilarga Xitoy tarixi va madaniyatini o'rganish imkoniyatini yaratadi.

Axborot texnologiyalari rivojlanishining hozirgi darajasi elektron arxivlarni amalga oshirishga imkon beradi. An'anaviy arxiv bilan taqqoslaganda, elektron arxiv foydalanuvchiga arxivni boshqarish uchun sarflanadigan vaqtni minimallashtirishga, hujjatlarning elektroniga kirishni ta'minlash orqali qog'oz hujjatlarga ehtiyojni kamaytirishga imkon beradi, shuningdek arxiv uchun bino, uning uchun foydalaniladigan kadrlar va boshqa resurslar uchun joy talablarini sezilarli darajada kamaytiradi. Shu bilan birga, elektron arxiv odatdagisini almashtirmaydi, balki uni to'ldiradi va hujjatlarning asl nusxalariga kirish zarurligini keskin kamaytiradi. Bundan tashqari, elektron arxiv qog'ozda mavjud bo'lmagan materiallarni arxivda saqlashni tashkil etishga imkon beradi.

References:

1. Arxivshunoslik. O'quv qo'llanma. Toshkent: Turon-Iqbol, 2018
2. X.A. Buriyeva, A.Y. Nazarov, B.B. Abbasov. Arxiv ishi nazariyasi va amaliyoti / O'quv qo'llanma.-Toshkent: "Innovatsion rivojlanish nashriyoti-matbaa uyi", 2020.
3. A.Y. Nazarov.Raqamli manbalar va elektron arxiv asoslari: O'quv qo'llanma.– Toshkent:Bookmany print, 2023.-160 bet
4. Katja Muller. Digital archives and Collections.-New York:Berghahn,2021.